

“HAYRAT UL-ABROR” DOSTONIDA QOFIYA

Nigora SHARIPOVA

Navoiy davlat universiteti doktoranti, f.f.f.d. (PhD)

[nigora-sharipova29@umail.uz](mailto:nigora-sharipova29@umail.uz)

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14804778>

**Annotatsiya:** Maqolada “Xamsa” ilk dostonlarida ifoda etilgan Sharq mumtoz poetikasining fikrni betakror va ravon ifodalash usullari va vositalari, qofiya va radifning go‘zal namunalari hamda turlari, shuningdek, qofiya san‘atlari misollar vositasida tahlilga tortilgan. Ularda ifoda etilgan ijtimoiy masalalar talqini, mualliflar badiiy niyati hamda yangi, original qarashlar ifodasida qofiyaning yuksak namunalaridan mahorat bilan foydalanilgani dalillangan.

**Kalit so‘zlar:** masnaviy, qofiya, talqin, an‘ana, badiiy mahorat, radif.

**Аннотация:** В статье рассматриваются методы и средства выразительного и изящного выражения мысли, характерные для восточной классической поэтики, встречающиеся в первых поэмах «Хамсы». Анализируются прекрасные примеры и виды рифмы и редифа, а также искусства рифмоплетения, подкрепленные конкретными примерами. Особое внимание уделяется интерпретации социальных вопросов, отраженных в произведениях, творческим замыслам авторов и их оригинальным взглядам, где мастерски используются высокохудожественные образцы рифмы.

**Ключевые слова:** месневи, рифма, интерпретация, традиция, художественное мастерство, редиф.

**Annotation:** The article examines the methods and means of expressive and elegant expression of thought, characteristic of eastern classical poetics, found in the first poems of “Khamasa”. Excellent examples and types of rhyme and redif, as well as the art of rhyming, are analyzed, supported by specific examples. Particular attention is paid to the interpretation of social issues reflected in the works, the creative ideas of the authors and their original views, where highly artistic examples of rhyme are masterfully used.

**Key words:** mesnevi, rhyme, interpretation, tradition, artistic skill, redif.

“Xamsa” ilk dostonlarining barchasi an‘anaviy masnaviy (ikkilik) yo‘lida yozilgan. Abdurauf Fitrat masnaviydan dostonlar, maktublar, asosan sevgi maktublari yozilishida foydalanilganini aytadi [1;141]. Ahmad Taroziy “Funun ul-balog‘a” asarida esa masnaviyning ikki misradan iborat bo‘lishini, ular o‘zaro qofiyalangan bo‘lishi lozimligini, unda, asosan, she‘riy qissalar yozilganini ta‘kidlab o‘tadi [5;84]. Masnaviy Alisher Navoiy davriga kelib epik she‘riyatning asosiy janriga aylanib, muhim ijtimoiy voqealarni keng ko‘lamda yoritishning muhim vositasi sanaldi.

Adabiyotshunos B.To‘xliyev masnaviyning janriy xususiyatlari haqidagi to‘xtalib, bu janrning to‘rt muhim jihatini e‘tirof etadi: 1) masnaviy alohida, o‘ziga xos she‘riy shakllardan biri; 2) masnaviydagi bayt misralari o‘zaro qofiyadosh bo‘ladi; 3) har bir bayt qofiya nuqtai nazaridan mustaqildir; 4) masnaviy hajm va mavzu jihatidan chegaralangan emas [6;9]. Olimning ushbu fikrlariga to‘la

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

qo'shilgan holda *epik she'riyatda masnaviy – she'riy shakldan adabiy janr darajasigacha* o'sib chiqqanligini qo'shimcha qilmoqchimiz.

Adabiyotshunos Abdurauf Fitrat qofiyaga ta'rif berib, jumladan, shunday deydi: “El adabiyotimizda qofiya boshqacharoq bir yo'sundadir: Yo masnaviy yo'sunda, har iki misrada bir qofiya keltirilgan sanarliklarga bo'linib, har to'rtlikning 1-,2-,4-misra'larda bir qofiya qilib, uchinchi misra'ga ayri qofiya berilgan yo to'rtlikning 1- va 2-misra'larga bir qofiya, 3-,4-misra'larida bir qofiya berilgan” [7;315]. Fitrat adabiyotimizda a-a, b-b, v-v... singari masnaviy usulida, to'rtlik tarzida yozilgan she'rlarning esa a-a-b-a hamda a-a-b-b tarzida qofiyalanish tartibi mavjudligini ta'kidlaydi. “Hayrat ul-abror” masnaviyda yozilganligi sababli uning qofiyalanishi *a-a b-b v-v...* tarzida kechadi. Masnaviyning bu tarzda qofiyalanishi ijodkor uchun juda qulay hisoblangan, har baytda yangi qofiyalar keltirilib, fikr daliliga imkon yaratilgan. Adabiyotshunoslikdagi qator tadqiqotlarda qofiya ilmi, qofiya harflari, qofiya harakatlari, qofiya san'atlari chuqur o'rganilgan hamda Alisher Navoiy va uning salaflari ilk dostonlari misolida tadqiq etilgan.

“Maxzan ul-asror”, “Matla' ul-anvor”, “Tuhfat ul-ahror”, “Hayrat ul-abror” yuksak umuminsoniy g'oyalar va ma'nolarga boyligi sababli mazkur dostonlarda qofiyaning juda ko'p turlari uchraydi va chuqur ijtimoiy, falsafiy, axloqiy, ta'limiy, ma'rifiy ma'nolarni ifodalaydi. «Risolayi qofiya»da Jomiy aytgan, baytlar oxirida takrorlanib keluvchi so'zlarning qofiyalari «*talaffuzda mustaqil bo'lmasin, balki misraning bir juzvi bo'lsin*» [2;301]. Darhaqiqat, qofiya bayt ma'nosining bir qismi bo'lishi, baytda ifoda topayotgan masalaning muhim jihatlarini o'zida aks ettirishi lozim. “Xamsa” ilk dostonlarida mualliflar qofiyalarning shakliy va mazmuniy mutanosibligiga alohida e'tibor qaratadi. Qofiya sifatida tanlangan so'z va iboralar shakl jihatidan yetuk va jarangdor bo'lishidan tashqari muayyan voqealar talqinida matnda ifodalanayotgan ma'noning uzvi, muhim qirradi bo'lib kelishiga e'tibor qaratadi.

Abdurahmon Jomiy «Risolayi qofiya» asarida qofiya turlari xususida shunday deydi: «Agar raviy harfi sokin bo'lsa va vasl harfi unga payvasta bo'lmasa, uni muqayyad o'qurlar. Va agar vasl harfi unga payvasta bo'lsa, uni mutlaq o'qurlar» [2;301]. Ko'rinib turibdiki, **muqayyad** qofiya raviy tovush bilan tugaydigan va **mutlaq** qofiya esa raviy tovushdan so'ng yana harflar keladigan qofiya turlaridir. “Maxzan ul-asror” va “Hayrat ul-abror”da har ikki tur qofiyalarga ham ko'plab misollarni uchratish mumkin.

### **Muqayyad qofiyalar:**

*Guldin uchib gulga, yetishdim shitob,*

*Toki zilol chashmaga qonsam shu tob.* [M.A. –B.47]

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

*Turfaroq ulkim, munga bir e'tibor,*

*Kim yuz aningdekni qilib xoru zor.* [H.A. –B.191]

### **Mutlaq qofiyalar:**

*Bog'u chaman o'ylaki uchmoqchidek,*

*Bargi suman qatraga ko' chmoqchidek.* [M.A. –B.49]

*Jo'laha g'urvoshida ohordek,*

*Yo'qki zag'an parrida murdordek.* [H.A. –B.226]

Tabiiyki, Nizomiy Ganjaviy qofiya yasash qoidalarini yaxshi bilgan, baytning avvalgi misrasidagi ma'nolarni dalillovchi va kuchaytiruvchi qofiyalarni topib mahorat ko'rsatgan. Alisher Navoiy ham uning davomchisi sifatida "Hayrat ul-abror"da qofiya ustasi, ilmi qofiyaning mukammal bilimdoni sifatida ko'rinadi:

1. Qofiyalar tasvirlanayotgan voqe'likni real hayotga yaqinlashtirish uchun xizmat qiladi:

*Nazm duri istariga xos o'lub,*

*Bahri tahayyul aro g'avvos o'lub.*

*Qilsam edi ulcha xiromimdurur,*

*Olsam edi onchaki komimdurur* [H.A. –B.296].

Bu baytlardagi qofiyalar shoir badiiy tafakkurining mahsuli bo'lsa-da, real hayotiy tafakkurga asoslanganini ko'rish mumkin.

2. «Hayrat ul-abror»da ba'zi qofiyalar vazn va ohang hosil qilish vazifasini bajaradi:

*Menda bu mobayn erur zorliq,*

*Xalq jafosig'a giriftorliq.*

*Bir dam ulus mehnatidin kom yo'q,*

*Bir nafas el javridin orom yo'q* [H.A. –B.294].

Bu baytlarda qofiyalar vazni ravon, ohangdor qilishdan tashqari shoir "Xamsa"ning birinchi dostonini yozish jarayonida boshdan kechirgan, his etgan tuyg'ulari, kechinmalarini ifodalovchi ma'nolarni kashf etadi.

**Qofiya harakatlari.** Jomiy «Risolai qofiya»da qofiya harakatlarini oltita deb ko'rsatadi. «a», «i», «u» singari qisqa unlilar harakat deb atalgan va ular yozuvda aks etmagan. «Harflar ustiga va ostiga a tovushiga *fatha*, i tovushiga – *kasra*, u tovushiga – *zamma* va shu uch tovush bo'lmagan, harakatsiz sokin bo'g'inlarga *sukun* belgisi qo'yiladi»[3;8-9].

«Risolayi qofiya»da qayd etilgan qofiya harakatlari: *rass*, *ishbo'*, *hazv*, *tavjih*, *majro*, *nafoz*. Bu unsurlarning har biri qofiyada muayyan o'rin egallagan. Jomiy talqinicha, **rass** – ta'sisdan avval keluvchi harakatdir.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Bu harakatning fathadan boshqa harf emasligini ta'kidlaydi. Fatha – «a»ni ifodalaydi. «Hayrat ul-abror»da rass qofiya harakatini quyidagi baytlar misolida ko'ramiz:

*Tuzdi buzuqlarni imorat bila,  
Zulmatni daf' etti adolat bila* [H.A. –B.112].

Rass – ta'sisdan oldin kelishini ta'kidladik. Ta'sis esa raviy – ishbo' – daxildan oldin keluvchi «o» unlisi hisoblanadi. Imorat va adolat so'zlarida *t* – tovushlari raviy, *a* – ishbo', *r, l* – daxil, ikkala so'zdagi *o* – ta'sis hamda adolat so'zidagi birinchi *a* tovushi rass hisoblanadi.

*Munda ekinlarga tafovut durur,  
YAxshirog' i judu saxovat durur* [H.A. –B.131].

Tafovut, saxovat so'zlaridagi so'nggi *t* tovushi – raviy, undan oldingi *u, a* – ishbo', *v* – daxil, *o* – ta'sis, *a* – rass hisoblanadi.

	rass		ta'sis	daxil	ishbo'	raviy
	a	d	o	l	a	t
t	a	f	o	v	u	t
s	a	x	o	v	a	t

**Rass** qofiya harakati sifatida «Funun ul-balog'a»da qayd etilmagan. Unda «qofiya harfining avvalinda kelur» deya *ta'sis* ta'kidlangan[5]. Ko'rib o'tganimizdek, rass ta'sisdan ham oldingi harakatdir.

**Ishbo'** qofiya unsuri bo'lish bilan birga fonetik istiloh sifatida ham qayd etiladi. Unga ko'ra, «a», «i», «u» harakatlari cho'ziq unlilar «o», «iy» va «o'» singari talaffuz qilinadi[5]. Ishbo' daxilning harakati sifatida ta'kidlanadi, qofiyada daxil va raviy o'rtasida keladi. Dostondagi baytlar misolida ishbo'ni kuzatamiz:

*Suvg'a safol ichra halovat durur,  
Ko'zguga kul birla tarovat durur* [H.A. –B.145].

Baytdagi raviydan oldingi *a* – tovushlari ishbo' sanaladi.

	rass		ta'sis	daxil	ishbo'	raviy
h	a	l	o	v	a	t
t	a	r	o	v	a	t

**Hazv** tovushni Jomiy ridf va qayddan avval keluvchi harakat sifatida e'tirof etadi. Dostondan shu xususiyat aks etgan baytlarni ko'rib chiqamiz:

*Mulk ila o'zni demagil, arjumand,  
Mulki qanoat bila bo'l sarbaland* [H.A. –B.145].

yoki *Andaki G'oziy shahi farxunda baxt,  
Toj olayin deb taloshur erdi taxt* [H.A. –B.112].

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

	hazv	qayd	raviy
arjum	a	n	d
sarbal	a	n	d
b	a	x	t
t	a	x	t

**Tavjih** – sokin raviydan avval keluvchi harakat ekanligi aytilgan. Adabiyotshunoslikka oid ko‘pgina manbalarda tavjih- raviydan oldin keluvchi qisqa unli tovush ekanligi qayd etilgan.

«Hayrat ul-abror»dagi qator baytlarda tavjihni kuzatish mumkin:

*Garchi tijorat bo‘lub oyinlari,*

*Bo‘lmadi bu mulkda taskinlari* [H.A. –B.85].

Bu qofiyalar tarkibidagi *n* – tovushlari raviy bo‘lsa, raviydan oldingi *i* – tavjih sanaladi.

*Ikki jahon mulki musallam anga,*

*O‘zga jahon bor esa ul ham anga.* Bu baytda *m* – raviy, *a* – tavjih.

*Rass, ishbo‘, hazv va tavjih* raviydan oldin keluvchi qofiya harakatlari hisoblanib, bu harakatlar odatda muqayyad qofiyalarda kuzatiladi. *Majro* va *nafoz* raviydan so‘ng keluvchi qofiya harakatlari sanalib, mutlaq qofiyalarni shakllantiradi.

**Majro** – raviyning harakati hisoblanib, raviydan so‘ng keluvchi birinchi qisqa unliga to‘g‘ri keladi:

*Turfa bukim boshida gul ochilib,*

*Ul gul ayog‘ig‘a dog‘i sochilib* [H.A. –B.168].

Dostondan olingan yuqoridagi baytda *ch* – raviy, *i* – majro, *l* – vasl, *i*-nafoz, *b*-xurujdir.

«Risolai qofiya»da *nafoz*ga shunday ta‘rif beriladi: «Vaslning harakatidir, xurujni unga payvand qilurlar» [8]. Demak, nafoz – unli tovush hisoblanib, qofiya tarkibidagi *vasl* va *xuruj* singari undosh tovushlarni bir-biriga bog‘lovchi vosita sanaladi.

*Bo‘lsa bular birla barumandliq,*

*Etgay alar nafsig‘a xursandliq* [H.A. –B.119].

Mazkur baytda *barumandliq-xursandliq* so‘zlaridagi *d* – raviy, *l* – vasl, *i* – nafoz, *r* – xurujdir.

*Bormag‘ayu, ko‘rmagayu, tutmag‘ay,*

*Aytmagay, eshitmagayu, yutmag‘ay* [H.A. –B.100].

Baytdagi *tutmag‘ay-yutmag‘ay* so‘zlaridagi *t* – raviy, *m* – vasl, *a* – nafoz, *g‘* – xuruj, *a* – nafoz, *y* – noyira.

# ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

## xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

	raviy	vasl	nafoz	xuruj	mazid	noyira
baruman	d	l	i	q		
xursan	d	l	i	q		
tu	t	m	a	g'	a	y
yu	t	m	a	g'	a	y

Xamsanavis salafilar va Hazrat Navoiyning boy ijodiy tajribasi, yuksak badiiy tafakkuri ilk dostonlar qofiyalarining rang-barangligida, asarning xilma-xil va noyob qofiyalarga boyligida yaqqol namoyon bo'ladi. Mazkur asarlarda ifoda etilgan ijtimoiy masalalar talqini, mualliflar badiiy niyati hamda yangi, original qarashlar ifodasida qofiyaning yuksak namunalaridan mahorat bilan foydalanilgan.

### Adabiyotlar ro'yxati

#### (Использованная литература / References):

1. Alisher Navoiy. To'la asarlar to'plami. Oltinchi jild. Hayrat ul-abror.– T.: G'.G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2013.
2. Абдурахмон Жомий. Рисолаи қофия // Шарқ мумтоз поэтикаси. Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
3. Рустамов А. Аруз ҳақида суҳбатлар. – Т. Фан, 1972.
4. Nizomiy Ganjaviy. Maxzan ul-asror (Sirlar xazinası). Forsiydan O'zbekiston xalq shoiri Jamol Kamol tarjiması. – Toshkent, 2016.
5. Тарозий. Фунун ул-балоға. Ўзбек тили ва адабиёти. 2002 йил, 1-сон.
6. Тўхлиев Б. Юсуф Хос Ҳожибнинг бадий маҳорати. – Тошкент, 2005.
7. Фитрат. Адабиёт қоидалари // Шарқ мумтоз поэтикаси. Ҳ.Болтабоев талқинида. – Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2008.
8. Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадийят малоҳати. – Т.: Шарқ, 1999.